

## THE IMPORTANCE OF NATIONAL MILITARY HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF PATRIOTISM IN MILITARY PERSONNEL

**Normatov Ravshan Toshmatovich,**  
*Docent, Academy of the Armed Forces  
of the Republic of Uzbekistan*

**Annotation.** The article presents thoughts and opinions on the significance of the national military heritage, military traditions and moral qualities of our great commanders, the courage and fortitude of the troops in ensuring the well-being of the country, defending the Motherland.

**Keywords:** situation, vigilance, cultural values, culture, spirituality, great commander, military skill, middle age, brave commanders, head of the army, security, selflessness.

## ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОИНСКОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЗМА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Норматов Равшан Тошматович,**  
*Доцент, Академии Вооруженные Силы  
Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В статье изложены мысли и мнения о значении национального военного наследия, боевых традициях и морально-нравственных качествах наших великих полководцев, мужестве и стойкости войск в обеспечении благополучия страны, защите Родины.

**Ключевые слова:** ситуация, бдительность, культурные ценности, культура, духовность, великий полководец, военное мастерство, средний век, храбрые военачальники, глава войско, безопасность, самоотверженность.

## HARBIY XIZMATCHILARNI VATANPARVARLIGINI YUKSALTIRISHDA MILLIY HARBIY MEROSNING AHAMIYATI

**Normatov Ravshan Toshmatovich,**  
*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari  
Akademiyasi dotsenti.*

**Annotatsiya.** Harbiy xizmatchilarning vatanparvarligini yuksaltirish borasida

milliy harbiy merosning ahamiyati, buyuk sarkarda bobolarimizning jangovar an'analari, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, qo'shinlarning Vatan himoyasi, yurt farovonligini ta'minlashda ko'rsatgan jasorati va matonati to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** vaziyat, ogohlik, madaniy qadriyatlar, madaniyat, ma'naviyat, buyuk sarkarda, harbiy mahorat, o'rta asr, jasur sardorlar, lashkar boshi, xavfsizlik, jonbozlik.

Yuzaga kelayotgan ana shunday murakkab va oqibatini oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyat harbiy xizmatchilarni yuqori darajadagi ogohlik hamda doimiy tayyorgarlik holatida bo'lish bilan birga ulardagi yuksak vatanparvarlikni ham taqozo etadi. Bu, avvalo, tarixni chuqur bilish, madaniy qadriyatlarni anglash, ma'naviy merosni tushunish orqali amalga oshadi. Chunki, o'z tarixini, madaniyatini, ma'naviyatini bilgan, tushungan va to'g'ri anglagan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni hech qanday kuch yenga olmasligi bugungi kunda yanada oydinlashmoqda. O'zbek xalqining haqqoniy tarixini odilona o'rganish ko'p ming yillik boy o'tmishimizni tadqiq etishning yaxlit konsepsiyasini aniqlab olishdan boshlanganligi, bu kelajakda ham uzluksiz davom etadigan mas'uliyatli ishga aylanganligi, bir tomondan, harbiy vatanparvarlik g'oyalarini talqin etishning tarixiy metodologik asosini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning milliy mentalitetimizga asoslangan tizimning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigida: **“Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir”**<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2024. <http://googie.com/search.old.xs.uz/indeks.php/hon>.

Xalqimiz boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosga ega bo'lib, ularni o'rganish milliy o'zligimizni anglash, ulardan samarali foydalanish fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish, milliy iftixor va milliy ruh hamda qadriyatlarimizni yuksaltirishning asosi hisoblanadi<sup>2</sup>.

Sharq mutafakkirlari asosiy e'tiborlarini, bir tomondan, qo'shinlar kuch-qudratini oshirish, ularning harbiy mahoratini yuksaltirish, mamlakat yaxlitligi va xavfsizligini saqlashga, ikkinchi tomondan, qo'shinda ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy fazilatlarni tarbiyalashga qaratdilar. Allomalarimizning bu fikr-mulohazalari bugungi kundamamlakatimiz harbiy salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish va ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba bo'lishi shubhasiz.

Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi jangovar ruhni yuksaltirish omili ekanligiga o'tmishdagi buyuk tariximiz guvoh desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

***Qoraxoniylar davlati.*** O'rta asr O'rta Osiyo davlatlarida bo'lgani kabi Qoraxoniylar (X asr - 1212-1213) davrida markazdagi boshqaruv tizimiga katta e'tibor berib qo'shinga tayangan holda o'z faoliyatini olib borgan<sup>3</sup>. Shuning uchun ham qoraxoniylar davrida qo'shinga ehtiyoj baland bo'lgan, mazkur davrdagi markaziy hokimiyat boshqaruvi mavjud bo'lgan qo'shinni son va sifat jihatdan rivojlantirishga, takomillashtirishga, qo'shindagi sipoh va sardorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga, mohir va jasur sardorlar, jangchilarni o'z xizmatiga yarasha rag'batlantirish masalalariga katta e'tibor qaratgan.

Qo'shinlarning joylashish o'rni va harakati qat'iy belgilab qo'yilgan tartib asosida amalga oshirilgan. Unga ko'ra, oddiy askar "***su***" deb nomlansa, butun qo'shinning saf tortishi "***cherik***" deyilgan. Har bir harbiy qism o'ziga yuklatilgan vazifani bajargan. Jumaladan, "haylboshi" – otliqlar to'dasiga boshchilik qilgan,

---

<sup>2</sup> Шохакимов А.Р. Процессы повышения национального духа в понимании национальной идентичности. "Экономика и социум" №11(90)-2 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 686с

<sup>3</sup> Negmatov B.M. O'zbekistonda harbiy ishlar tarixidan lavhalar. –T.: Falsafa va huquq instituti. 2010. 76 bet.

“*yizak*” – qo‘shinning avangardi sifatida oldinda yurgan, “*chovush*” – janglarda saflarni tuzatgan, osoyishtalik vaqtlarida bo‘lsa askarlarni o‘zboshimchalik bilan tinch aholiga ozor yetkazishdan saqlangan. Qo‘shinlarga yo‘l ko‘rsatib borish esa “*qulovuz*” zimmsida bo‘lgan.

Qoraxoniylar davlatida faoliyat yuritgan buyuk allomalardan biri Yusuf Xos Hojib lashkarboshilar xususida shunday deydi: “Olisdagi yovning vahimasidan qo‘rqma, aksincha, undan yaqindan voqif bo‘lib tur, shunda uning bor imkonidan xabar topasan. Dushman dag‘dag‘a qilib do‘q qilsa, bardoshli bo‘l, chekinma”<sup>4</sup>. Yusuf Xos Hojibning yuqoridagi fikrlari hozirgi zamon harbiy xizmatchilariga ham zarur va muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardagi jangovar ruhni, botirlik va sergaklikni oshiradi hamda dushmani mohirona yakson qilishda dasturil amal bo‘ladi.

**G‘aznaviylar davlati.** G‘aznaviylar (962-1183) saltanati o‘z davrida byurakratik va harbiy qatlamga, shuningdek, yer aristokratiyasi va musulmon ruhoniylariga tayangan o‘rta asr Sharq davlatlaridan biri bo‘lgan.

G‘aznaviylar davlatida sulton va markaziy hokimiyatning asosiy tayanchi turli qabilalardan tarkib topgan *doimiy qo‘shin* bo‘lgan. Bular asosan *otliq qo‘shinlar* bo‘lgan, lekin ularga *piyoda otryadlar*, favqulodda holatlarda esa shaxarlik *ko‘ngillilar* va *dehqonlar* ham kirgan. G‘aznaviylar qo‘shinida turklar, seyistonliklar, hindlar, kurdlar, arablardan vakillar bo‘lgan. Buni qo‘shinlarni bir-biridan ajratish va ularni qat’iy tobelikda ushlab turishga intilish bilan izohlash mumkin. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, Nozomulmulk at-Tusiy tomonidan o‘zining “Siyosatnoma” asarida qo‘shinni joylashtirish, uni boshqarish borasidagi fikrlar, hozirgi zamon armiyasida qo‘shinni boshqarish, uning jangovar marohatini oshirish, qat’iy intizomni ta’minlashda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

**Saljuqiylar davlati.** Saljuqiylar (1038-1308) davlatida fuqarolik muassasalari bilan bir qatorda, “*divoni ariz al-jayish*” deb nomlangan harbiy idora ham mavjud bo‘lgan. Mazkur harbiy boshqarmaning rahbari o‘z noibiga (o‘rinbosariga) ega bo‘lgan ariz al-jaysh bo‘lgan. Divoni ariz boshqaruvning boshqa oliy organlari kabi turli viloyatlarda o‘z bo‘linmalariga ega bo‘lgan.

<sup>4</sup> Yusuf Xoch Hojib. Qutadg‘u blig. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B.57.

Saljuqiylar davlatidagi qo'shinlardagi mashhur lashkarboshilar (isfaxsolor) va ko'zga ko'ringan komandirlar (amirlar) borligida ariz muhim figura bo'lmagan. Shuningdek, u boshqa davlatlarning rasmiy boshliqlari bilan ham raqobat qila olmagan. Faqatgina yollangan arizlarning nomlarigina saljuqiylar davlati haqida ma'lumot beruvchi manbalarda saqlanib qolgan<sup>5</sup>.

Saljuqiylar qo'shinlarining tarkibi ham o'sha davr musulmon davlatlari qo'shinlariniki kabi turli qabila vakillaridan iborat bo'lgan. Xususan, turklar, xurosonliklar va daylamiylar ko'pchilikni tashkil etgan. O'z davrida buyuk arab mutafakkiri Johiz ibn Bahr (taxm. 767-868 yy.) turklarning yaxshi navkarlar ekanligini, nayza otish va otda yurishda yuksak tajribaga ega bo'lganliklarini alohida ta'kidlagan edi.

**Xorazmshoxlar davlati.** Xorazmshoxlar (1097-1231) o'z davrining qudratli qo'shiniga ega bulgan. Ular uchun bu qo'shinlarni to'ldirish va ta'minlash eng muhim ish bulgan. Xorazmshoxlar qo'shini yaxshi o'qitilgan, qurollangan, uning lashkarboshilari esa harbiy holatlarda bir necha bor jasurlik va tajribalarini namoish qilganlar.

Darhaqiqat, ma'naviy barkamol insonning ulug'ligi uning o'zini va atrofidagilarni yuksaklikka ko'taradigan fazilatlarini o'zida mujassamlashtirib, nurlantira olishidadir<sup>6</sup>.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, o'rta asrlardagi dastlabki mustaqil davlatlar qo'shinlari o'ziga xos va o'ziga mos ravishda ravnaq topib, Vatan himoyasi, yurt farovonligini ta'min qilishda katta jonbozlik ko'rsatishgan. Ularning ko'rsatgan jasorati va qahramonlik harbiy xizmatchilarda vatanparvarlikni yuksaltirishga omil bo'ladi shu sababli ularning tarixda qoldirgan harbiy merosini o'rganish va uni hayotga tadbiiq etish hozirgi davr talabi desak to'g'ri bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

---

<sup>5</sup> Nizomulmulk. Siësatnoma. - Toshkent: «Adolat», 1997; Agadjanov S.A. Seldjukidı i Turkmeniya v XI-XII vv. - M., 1973.

<sup>6</sup> Yuldashev O.Sh. A spiritually developed person is a great person. «Pedagogical cluster» 2024, Volume 02, Issue 06. 26-29 Page. Website: <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/index/>

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2024. <http://.googie.com/search>. old.xs.uz/indekx.php/hon.
2. Шохакимов А.Р. Процессы повышения национального духа в понимании национальной идентичности. “Экономика и социум” №11(90)-2 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 686с
3. Negmatov B.M. O‘zbekistonda harbiy ishlar tarixidan lavhalar. –Т.: Falsafa va huquq instituti. 2010. 76 bet.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u blig. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B.57.
5. Nizomulmulk. Siyosatnoma. - Toshkent: «Adolat», 1997.
6. Агаджанов С.А. Селджукиды и Туркмения в XI-XII вв. - М., 1973.
7. Yuldashev O.Sh. A spiritually developed person is a great person. «Pedagogical cluster» 2024, Volume 02, Issue 06. 26-29 Page. Website: <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/index/>